



УДК: 372.881.151.21:81'27

Sohibjamol TANGATAROVA,
Tadqiqotchi, Qo'qon universiteti, Qo'qon, O'zbekiston
e-mail: tangatarova@gmail.com ORCID 0009-0001-9293-928

Professor, DSc A.Tursunovtaqrizi asosida

CONTENT OF DEVELOPING STUDENTS' FLUENT SPEAKING SKILLS IN THE UZBEK LANGUAGE

Аннотация

This article analyzes the issues of developing students' speaking skills in the Uzbek language in classes where instruction is conducted in Russian. The importance of the communicative approach in teaching Uzbek as a second language is highlighted, along with the types of speech activity and the methodology for the step-by-step formation of speaking skills. The study proposes a pedagogical model aimed at developing students' oral speech, outlining mechanisms for organizing the learning process based on motivational, cognitive, practical, and reflective stages. In addition, ways to increase students' speech activity through learning tasks, interactive methods, and communicative exercises are substantiated.

Keywords: Uzbek language teaching, Russian-medium education, speaking skills, communicative competence, speech activity, learning tasks, pedagogical model, interactive methods.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ БЕГЛОЙ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы развития навыков устной речи на узбекском языке у учащихся в классах с русским языком обучения. Освещается значение коммуникативного подхода при преподавании узбекского языка как второго языка, а также рассматриваются виды речевой деятельности и методика поэтапного формирования навыков говорения. В исследовании предложена педагогическая модель, направленная на развитие устной речи учащихся, в которой раскрыты механизмы организации учебного процесса на основе мотивационного, когнитивного, практического и рефлексивного этапов. Кроме того, обоснованы пути повышения речевой активности учащихся с использованием учебных заданий, интерактивных методов и коммуникативных упражнений.

Ключевые слова: преподавание узбекского языка, обучение на русском языке, навыки говорения, коммуникативная компетенция, речевая деятельность, учебные задания, педагогическая модель, интерактивные методы.

O'QUVCHILARNI O'ZBEK TILIDA RAVON GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Аннотация

Mazkur maqolada ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o'quvchilarning o'zbek tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati, nutqiy faoliyat turlari hamda gapirish ko'nikmasini bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik model taklif etilib, unda motivatsion, kognitiv, amaliy va refleksiv bosqichlar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish mexanizmlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, o'quv topshiriqlari, interaktiv metodlar va kommunikativ mashqlar yordamida o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili ta'limi, rus tilida ta'lim, gapirish ko'nikmasi, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faoliyat, o'quv topshiriqlari, pedagogik model, interaktiv metodlar.

Kirish. Gapirish maktabda fanlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan asosiy ko'nikmalardan, o'qitishning amaliy maqsadlaridan biridir. Gapirish kommunikativ ahamiyatga ega u orqali o'quvchi o'z atrofidagi dunyo haqidagi bilimlarini boyitib boradi. Gapirish orqali o'quvchilarning aql-zakovati namoyon bo'ladi, rivojlanadi. Bu ko'nikma o'qish, o'qib tushunish ko'nikmasi bilan birgalikda rivojlanadi. O'qish xotira, iroda va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. Matni o'qiyotganda o'quvchi tovushlar va harflar, so'z va grammatika orqali qaraydi, so'zlarning imlosini, so'z va iboralarning ma'nosini eslab qoladi va shu bilan ularning til haqidagi tasavvurlarini takomillashtiradi. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilarini yaxshi o'qishga o'rgatsa va ular o'qiyotgan narsalarini etarli ravonlik va to'liq tushunish bilan o'qiy olsa, bir paytning o'zida ularning gapirish va yozish malakalarini egallashlariga ham yordam beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida ko'p tillilik - ta'limning muhim talabi hisoblanadi. Rus tilida ta'lim

olayotgan o'quvchilar uchun davlat tili bo'lgan o'zbek tilini egallash, ayniqsa, gapirish ko'nikmasini shakllantirish eng dolzarb vazifalardan biridir. Chunki gapirish ko'nikmasi boshqa nutqiy faoliyat turlarini ham birlashtiradi va o'quvchining kommunikativ savodxonligini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutq mashqlari yoki kommunikativ mashqlar. Ushbu mashqlarning maqsadi o'zbek tilining kommunikativ vazifalarini amalga oshirish va kommunikativ ko'nikmalarni o'rgatish (tinglash, gapirish, o'qish va yozish)dir.

Nutq mashqlari - har doim ijodiy mashqlardir. Bu har doim turli darajadagi nutq teran vazifalari ekan. Mashqlarning asosiy xarakteristikasi - pragmatizm va motivatsiya (o'quvchilarning tashabbuskorligi, motivatsiyasini ta'minlash) hisoblanadi.

Passov E.I va Kuznetsova E.E. Ushbu mashqlarni uch guruhga ajratgan:

1) mazmuni ko'rsatish mashqlari: qisqa tanlanma insho, dramaturgiya va boshqa turdagi mashqlar;

2) tavsif mashqlari: elementar tasvirlar, badiiy hikoyalar, haqiqiy ob'ektlarning tavsifi;

3) ifoda mashqlari, munosabat va baholarni ifodalash: muhokama, izohlar.

Mashqlarning maxsus turi – muloqotni simulyasiya qiluvchi, tezkor, oddiy psixologik ijro usuli bilan ishlashga imkon beruvchi mashqlar. Tabiatan ular og'zaki bo'lishi mumkin; uslubiy yo'nalishda aspekt bo'lishi mumkin. Misollar: bayon mashqlari, shartli suhbat, talabalar savollari, matbuot anjumanlari, intervyular kabi mashqlar.

Shartli-nutqiy mashqlar yoki shartli kommunikativ mashqlar

Bu turdagi mashqlarning xarakterli xususiyati shundaki, u til materialini tabiiy simulyasiya qiluvchi o'quv yoki shartli muloqotda mashq qilish imkonini beradi.

Shartli-nutqiy mashqlar vaziyatli bo'lishi kerak (o'qituvchining har qanday remarkasi va o'quvchining javobi sheriklarning holati, munosabatlari, ularning faoliyatiga tegishli bo'lishi kerak). Ular o'quvchilarning shakl bo'yicha emas, bayonlarning maqsadi va mazmuniga e'tibor qaratilishini, o'rganayotganlari kabi iboraning kommunikativ qiymati bilan xarakterlashlarini ta'minlashlari kerak.

Shartli-nutqiy mashqlarning turlari: taqlidiy – o'quvchi o'qituvchining remarkasiga butunlay taqlid qiladi; o'rin almashtirish – bu mashqlarda leksik birliklarni almashtirish qabul qiluvchi strukturada olinadi; transformatsiya – idrok qilingan shakllarni o'zgartirish (masalan, nafaol ovozni faolga o'tkazish); reproduksiya – o'z-o'zini anglashning o'zlashtirilgan shaklini taklif qiladi.

Tasniflashning boshqa turiga ko'ra leksik mashqlarni ajratish mumkin:

1) so'z – reproduktiv va mahsuldorlikni o'z ichiga olgan nutq faoliyati turiga ko'ra.

2) so'zlarni o'zlashtirish orqali, ya'ni leksik ko'nikmalarning rivojlanish bosqichlari bo'yicha.

3) leksik mashqlar yo'nalishida muayyan jihatlar – fonetik, grafik va boshqalar bo'yicha.

4) nutqiy muloqotning ma'lum turini yaratish mashqlari yo'nalishida.

5) mashq qanday ajratilgan so'z bilan ishlashni o'z ichiga oladi, yoki ibora yo jumladagi so'zda.

6) so'zni o'rganish uchun o'tkaziladigan jarayonlar turiga ko'ra (almashtirish, qo'shish va hokazo).

7) yangi so'zlarni o'rganish yoki so'zlarni takrorlash uchun so'z mashqlariga e'tibor berish.

Monolog nutqiy mashqlar: o'rganilgan so'zlardan foydalangan holda bir qator kartinalarni sharhlash; bir qator chizmalar, kinofilmlarga monolog tuzish; ikki matn mazmunini taqqoslash; mavzu bo'yicha yozib olish; mavzu bo'yicha hisobot tayyorlash; voqealarni tushuntirish.

Dialogik mashqlarga quyidagilar kiradi: o'quvchilarning savollariga matnga o'rganilgan so'z birkimlaridan foydalanish; o'qituvchining savollariga so'z yoki birkimada javob berish; o'rganilgan so'zlardan foydalangan holda turli tipdagi mikro-dialoglarni tayyorlash; dialoglarni tipik vaziyatlarga tayyorlash; o'ylab topilgan so'zni taxmin qilish uchun savollar turkumi.

N.Dadajonova, G.Qurbonova, L.Y.Akramova, M.Qoraxo'jayeva, S.Adilova, M.Jo'rayev, N.Umarovalarning oliy o'quv yurtlari rus sinflarida o'quvchilar nutqini ixtisosiy-sohaviy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilida mutaxassislikka oid birkimlarni qo'llashga o'rgatish, o'zbek tili mashg'ulotlarida zamaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish masalalarini yoritishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Jumladan, o'zbek tilining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflarda o'qitilishiga doir X.Muhitdinova, A.Rafiyev, I.Mirzayev, M.Boltayev kabilar rus sinflari uchun; M.Bo'ronov, Sh.Yuldasheva va D.Kabulovalar esa qoraqalpoq tilli sinflar uchun bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borgan. Biroq zamon shiddat bilan rivojlanayotgan ayni paytda yaratilgan darslik, metodik qo'llanma va metodik tavsiyalarda o'quv topshiriqlari mazmunini takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

O'quv topshiriqlari o'quvchi va o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani to'la shakllantira olmayapti. Uzlüksiz ta'lim tizimida o'zbek tilini ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflarda o'qitilishi bilan bog'liq monografik tadqiqotlar pedagogika fanlari doktori, professor X.Muhitdinova tomonidan tizimli ravishda olib borilmoqda. Ta'kidlash lozimki, mazkur tadqiqotda o'zbek tilini, asosan, rus sinflarida o'qitishda dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan. H.Mirzohidova o'zbek maktablarida fonetika o'qitishni qirg'iz tiliga qiyoslab, qardosh tillarga taqqoslab tushuntirishning qulayliklari haqida fikr yuritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda esa o'zbek tili mashg'ulotlari orqali ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini, xususan, gapirish konikmasini mashqlar orqali rivojlantirish imkonini beruvchi o'quv topshiriqlar tizimi – yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Til o'qitish metodikasida nutq faoliyatining to'rtta asosiy turi ajratiladi: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish. Ushbu faoliyat turlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ayniqsa gapirish ko'nikmasi kommunikativ kompetensiyaning markaziy komponenti hisoblanadi. Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o'zbek tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:



Mazkur tamoyillar o'quvchilarning tilni faqat grammatik qoidalar asosida emas, balki muloqot jarayonida o'zlashtirishini ta'minlaydi.

Respublikamizda o'zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o'qitish hamda bilim va malakalarni baholashga doir bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, o'z

tadqiqotlarida rus guruhlarida o'zbek tili ta'limi, dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e'tiborini qaratadi. G.Asilova ham davlat tili o'qitishda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

Og'zaki nutqni o'stirishda juda ko'p usul va uslublardan foydalanish mumkin. Har bir uslubning o'ziga

yarasha afzallik va noafzallik tomonlari bor. Bu, albatta, o'qituvchining mahoratiga bog'liq, u usullarni mavzuga, o'quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga, xususiyatlariga qarab moslashtirishi va to'g'ri tanlashi kerak. So'nggi tendensiyalarga muvofiq, til ko'proq muloqot sifatida o'qitilishi ko'zlangan. Shu sababli og'zaki nutq, ya'ni gapirish ko'nikmalarining nafaqat sifati va xususiyatlariga qarab, balki mavjud ta'lim amaliyotida ularni rivojlantirishga qaratilgan uslub va usullarda ham aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari

Rus tilida ta'lim beriladigan sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish jarayoni bir necha metodik bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Motivatsion bosqich

Bu bosqichda o'quvchilarda o'zbek tilida gapirishga qiziqish va ehtiyoj shakllantiriladi. O'qituvchi turli motivatsion usullar – suhbat, videomateriallar, o'yinlar, savol-javoblar orqali o'quvchilarni faol muloqotga jalb etadi.

Model komponentlari	Mazmuni
Maqsadli komponent	O'quvchilarda o'zbek tilida erkin og'zaki muloqot ko'nikmalarini shakllantirish
Mazmuniy komponent	Leksik, grammatik va kommunikativ materiallar majmuasi
Metodik komponent	Interaktiv metodlar, dialogik va monologik mashqlar, rolli o'yinlar
Faoliyat komponenti	Juftlik va guruhli ishlash, muammoli vaziyatlar
Natija komponenti	O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi va nutqiy faolligi

Mazkur model o'quv jarayonini tizimli tashkil etish hamda o'quvchilarning og'zaki nutqini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur model ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o'quvchilarning o'zbek tilida gapirish ko'nikmasini tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Modelning asosiy maqsadi o'quvchilarda o'zbek tilida erkin muloqot qilish, fikrini aniq va ravon ifodalash hamda turli kommunikativ vaziyatlarda til birliklaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Model bir necha o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan. Avvalo, maqsadli komponent o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda o'quvchilarning tilga qiziqishini oshirish, ularni o'zbek tilida muloqot qilishga undash muhim hisoblanadi.

Mazmuniy komponent esa o'quvchilarga beriladigan til materiallari – so'z boyligi, grammatik tuzilmalar va kommunikativ birliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponent orqali o'quvchilar kundalik hayotda qo'llaniladigan leksik birliklar va gap tuzilmalarini o'rganadilar hamda ularni nutq jarayonida qo'llashni mashq qiladilar. Metodik komponent o'qitish jarayonida qo'llaniladigan usul va metodlarni qamrab oladi. Bunda interaktiv metodlar, dialog va monolog asosidagi mashqlar, rolli o'yinlar, suhbatlar, muammoli vaziyatlar hamda kommunikativ topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni o'z fikrini mustaqil bayon qilishga o'rgatadi.

2-bosqich. Leksik-grammatik tayyorgarlik bosqichi

Ushbu bosqichda o'quvchilar gapirish uchun zarur bo'lgan asosiy so'z boyligi va grammatik tuzilmalarni o'zlashtiradilar. Dialogik mashqlar, so'z birliklari bilan ishlash, model gaplarni takrorlash kabi usullar qo'llaniladi.

3-bosqich. Kommunikativ-amaliy bosqich

Bu bosqich gapirish ko'nikmasini faol shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar rolli o'yinlar, dialoglar, munozaralar, vaziyatli topshiriqlar orqali o'zbek tilida mustaqil fikr bildirishga o'rganadilar.

4-bosqich. Refleksiv-tahliliy bosqich

Mazkur bosqichda o'quvchilar o'z nutq faoliyatini tahlil qiladi, xatolar ustida ishlaydi va nutqni takomillashtiradi. O'qituvchi esa baholash, o'zaro baholash va tahlil usullaridan foydalanadi.

Gapirish ko'nikmasini rivojlantirish modeli

Rus tilida ta'lim beriladigan sinflarda o'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish modeli quyidagi komponentlardan iborat:

Faoliyat komponenti o'quvchilarning amaliy nutq faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. Bu jarayonda o'quvchilar juftlik va guruhlarda ishlash, savol-javoblar o'tkazish, dialoglar tuzish, muayyan vaziyatlarni tasvirlash orqali o'zbek tilida muloqot qilish tajribasini orttiradilar.

Natija komponenti esa o'quvchilarda shakllangan nutqiy ko'nikmalarini namoyon etadi. Modelni samarali qo'llash natijasida o'quvchilar o'zbek tilida erkinroq gapira boshlaydi, fikrini izchil ifodalay oladi va turli kommunikativ vaziyatlarda o'zbek tilidan faol foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Shu tariqa, mazkur model o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va samarali tashkil etish imkonini beradi hamda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda o'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish murakkab, ammo muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun kommunikativ yondashuvga asoslangan metodlardan foydalanish, o'quv topshiriqlarini bosqichma-bosqich tashkil etish hamda o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish zarur. Taklif etilgan metodik bosqichlar va pedagogik model o'quvchilarning o'zbek tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi va til o'qitish samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – Москва: Просвещение, 1989. – 277 с.
2. Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ –Тошкент, 2011. -270 б
3. Мирзоходова Х. Ўзбек мактабларида фонетикани қирғиз тилига қиёслаб ўрганиш: пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ – Тошкент, 1998. -143 б.
4. Асилова Г.А. Умумий ўрта таълимда танлаш усулидаги тестлардан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари: пед.фан. номз. ... дис. – Т.: 1998. 156 б.
5. Отамуродова, Д.Р. Француз тили дарсларида талабларнинг гапириш кўникмасини ривожлантиришда мулоқотнинг роли // Молодой учённый. - 2022. - № 1 (396). - 308-310 бетлар